FIZIKADAN LABORATORIYA ISHINI BAJARISHDA YANGI VA NOAN'ANAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

Abdullayev Abduraxman - texnika fanlari nomzodi, dotsent, Guliston davlat universiteti
Abdullayev Baxtiyor Abduraxmanovich - Guliston davlat pedagogika instituti

Fizikadan laboratoriya ishlarini bajarish o‘quvchi amaliy faoliyati jarayonida uning oldiga qo‘yilgan nazorat va amaliy topshiriqlarni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Fizikadan laboratoriya ishi bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash muammosini yetarli darajada tushunmaslik holari uchraydi. U yoki bu uslub optimalligi uning atalishi odatdagicha bo‘lib qolinganligi bilan emas, balki bajariladigan laboratoriya ishi mazmuniga mosligi, o‘quvchi imkoniyatiga muvofiqligi bilan baholanadi. Eng maqbul tanlangan uslublar qo‘yilgan muammoni belgilangan vaqtda ijobiy hal qilish imkonini beradi.

O‘qituvchi fizikadan laboratoriya ishini bajarishni rejalashtirishda va noan'anaviy uslublarni tanlashda quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan tanishib chiqib, uni bajarish maqsadi va vazifalarini belgilab olish;
- laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha asosiy talablar: laboratoriya ishini bajarishda o‘quvchi qaysi asosiy tushunchalarni, hodisalarni, jarayonlarni, qonunlarni, nazariyalarni bilishi, nimalarni hal qila olishi kerakligi bilan tanishib chiqib, laboratoriya ishini bajarishdan kutiladigan natijalarni oldindan aniqlab olish;
- o‘quv rejasi bilan tanishib, zarur bo‘lsa, unga o‘zgartirish kiritishi, bajariladigan laboratoriya ishlarini tasniflab chiqish;
- har bir laboratoriya ishini bajarish uchun yetarlicha vaqt ajratib, dasturda nazarda tutilgan fanlararo aloqadorlikdan foydalanish, mazkur tajriba ishi mazmuni va vazifalarini rejalashtirish;
- laboratoriya ishini bajarishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni tanlash;
- o‘quvchining umumiy, kichik guruhda va induvidual holda laboratoriya ishini bajarishini uyushtirish shakllarining o‘zaro mos birlashmasini tanlash;
- dars jarayonida tanlangan variantni qo‘llab, laboratoriya ishini bajarish uslubi va shakllariga zarur tuzatishlar kiritib borish.

Fizikadan laboratoriya bajarish loyihasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan quyidagi topshiriqlar tizimi belgilab chiqildi:

1. Dastur, darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, sinf o‘quvchilarining umumiy tavsifnomasi bilan tanishish.

2. O‘quvchi faoliyatida laboratoriya ishini bajarishning asosiy vazifalari majmuasi: o‘qitish, ta’limiy, tarbyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni belgilash.

3. O‘quvchi faoliyatida laboratoriya ishini bajarishning asosiy bosqichlarini ketma-ket va izchillikda joylashtirish.

4. O‘quvchi faoliyatida laboratoriya ishini bajarishning har bir bosqichi mazmunini aniqlash.

5. O‘quvchi faoliyatida har bir bosqich uchun interfaol uslublarni, shuningdek, laboratoriya ishini bajarish texnologiyasi va vositalarini tanlash.

6. O‘quvchi faoliyatida laboratoriya ishini bajarishning har bir bosqichi uchun yetakchi: umumsinf, kichik guruh va induvidual shaklini tanlash.

7. O‘quvchi faoliyati jarayonida bo‘sh va puxta o‘zlashtiruvchi o‘quvchi uchun tabaqalangan laboratoriya ishini tanlash.

8. Tegishli sinf o‘quvchilari uchun vaqt meyorlariga muvofiq uy vazifasi hajmi va mazmunini tanlash.

Mazkur topshiriqlar tizimining bajarilishida ayrim o‘quvchi laboratoriya ishini bajarishning asosiy bosqichlarini ketma-ket va izchil joylashtirishga qiynalgan bo‘lsa, ba’zilari laboratoriya ishini bajarishning har bir bosqichidagi asosiy o‘rinlarni ajratib berishga, boshqalari esa zamonaviy texnologiyalar va uslublarni tanlashda yoki kuchli o‘quvchi uchun tabaqalangan laboratoriya ishlarini tanlashda qiyinchilikka duch kelganliklari ta’kidlab o‘tildi. Shu bois pedagogik tajriba-sinov jarayonida tajriba guruhlarida laboratoriya ishini bajarish uslublari va texnologiyalarini optimal tanlash bo‘yicha trening tashkil etildi. Mazkur treningda respondentlar uchun uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi.

Fizikadan laboratoriya ishini to‘liq bajargan o‘quvchini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq. Ayrim hollarda muammoli izlanish uslubidan foydalanib, laboratoriya ishini bajarishda o‘quvchi ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki ayrim o‘quvchida laboratoriya ishini bajarishda o‘yinlar va o‘quv munozaralarni tashkil qilish mahorati ham yetarli darajada shakllanmagan.

Darsda laboratoriya ishini bajarish jarayonining 3 ta funksiyasi bajariladi: ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish. Buni laboratoriya ishini bajarish davomida amalga oshirishda interfaol uslublardan foydalanib dars o‘tish yaqindan yordam beradi. Bajarilayotgan laboratoriya ishini bajarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchiga o‘zaro ta’sir harakati orqali yo‘naltirish, interfaol uslublarni qo‘llash, laboratoriya ishini bajarishning asosi bo‘lib, bunda o‘quvchi tayyor bilimlarni bermasdan, balki ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Laboratoriya ishini bajarishda interfaol uslublarni qo‘llashda o‘qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- interfaol uslublarning mazmun-mohiyatini;
- laboratoriya ishini bajarish maqsadini amalga oshirishda interfaol uslublarning o‘rni va rolini;
- fanlararo interfaol uslublarni qo‘llash tamoyillarini;
- ishchanlik o‘yinlarini;
- noan’anaviy uslublarni;
- o‘quvchi faoliyatini tashkil qilish va ta’minlash yo‘llarini;
- o‘quvchining laboratoriya ishini mustaqil bajarish mahoratini oshirish yo‘llari va imkoniyatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назиров Э.Н., Худайбергенова З.А., Сафиулина Н.Х. – Механика ва молекуляр физикадан практикум. – Т., Ўқитувчи, 1979 й.

2. Turaev S.J. (2019) “Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.

3. Одилов Ё.Ж. Физикадан таълим бериш асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Тошкент, 2021. – № 5. ISSN 2181-1709. – Б. 238-244.

4. Одилов Ё.Ж. Физика фанини ўқитишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш // Наманган давлат университети илмий ахбороти. – Наманган, 2021. – № 11. – Б. 22-24 (13.00.02. № 30).

5. Одилов Ё.Ж. Физика фанини ўқитиш асосида талабаларнинг лойиҳавий конструкторлик фаолиятини ривожлантириш // Муэллим ҳэм үзликсиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал. – Нөкис, 2021. – № 2. – Б. 103-106 (13.00.00. № 20).